OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING FAOLIYATI

Zakirov A.A.
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ps.f.n, dots
Ashurova M.S.
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti

Tayanch so‘zlar: oilaviy ,ta’lim-tarbiya, nodavlat, tarbiyachi, faoliyat. subsidiya, guruh, bola, ota-ona.
Ключевые слова: семья, образование, негосударственное образование, педагог, деятельность. субсидия, группа, ребенок, родитель.
Key words: family, education, non-state education, teacher, activity. subsidy, group, child, parent.

Oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari bu yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorning o‘ziga yoki turmush o‘rtog‘iga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan turar yoki noturar joyda tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, agar turar yoki noturar joy boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa, bitim muddati davomida amal qilish sharti bilan notarial tasdiqlangan ishonchnoma yoki davlat organlaridan ro‘yxatdan o‘tgan ijara shartnomasi asosida yoxud qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra foydalanish mumkin bo‘lgan turar va noturar joylarda amalga oshirish huquqiga ega. Oilaviy MTT faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talab etilmaydi. Biroq, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki “Litsenziya” axborot tizimidan foydalangan holda berilgan xabarnoma va uning qabul qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnoma nusxasi bo’lishi kerak. Oilaviy MTTni tashkil etish uchun davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim tuziladi. Oilaviy MTTda 50 nafargacha bolalarga tarbiya berilishiga ruxsat etiladi..Bu nda MTT da har bir guruh 12-25 nafargacha turli yoshdagi bolalardan iborat bo‘ladi. Birinchi

guruhda 25 nafar bola to‘liq shakillantirilgandan keyin ikkinchi guruhning ochilishiga yo‘l qo‘yiladi

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi va vazifalari

Oilaviy MTTning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, andoqiy, estetik, va jismoniy rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limign sifatli tayyorlash,bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishdir

Oilaviy MTTning vazifalari ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish, bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash, bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish, bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash, bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.

Oilaviy MTT ota-onalar bilan kelishuv bo'yicha qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish (shu jumladan, o'qituvchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlarini taklif qilish);belgilangan tartibda tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib subudiya mablag'lari hisobidan 2,5 ta shtat birligigacha tarbiyachi va 2 ta shtat birligigacha tarbiyachi-yordamchini yollash, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotları uchun belgilangan tartibda o'z mablag'lari hisobidan tashkilot xodimlarining malakasini oshirish, xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobiga o'z xodunları ishini qo'shimcha ravishda rag'batlantirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiya olish huquqiga ega Oilaviy MTT rahbarlari: oilaviy MTT, uning xodimlari va tarbiyalanuvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar tegishligicha NMTTBATga va "Bolalar bog'chasi maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimiga kiritilishini ta'minlashga majbur, bolalar salomatligi, xavfsizligi, ta'lim-tarbiya sifatı, NMTTHAT va "Bolalar bog'chasi" ATga kiritiladigan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgandir

Oilaviy bog‘chalarga 3 yoshga to‘lmagan bolalarni ham qabul qilishga ruxsat beriladi.

«Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident qarori (PQ–322-son, 14.07.2022-y.) qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, 2022-yil 1-sentyabrdan:Oilaviy nodavlat bog‘chalarda:

qatnayotgan ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar farzandlari va maxsus kontingentlar soni tarbiyalanuvchilar sonining 70 foizidan kam bo‘lganda, yetmagan qismiga boshqa oilalarning bolalarini qabul qilishga ruxsat etiladi;

tarbiyachi va tarbiyachi-yordamchi lavozimlari uchun 4,5 tagacha shtat birligini ajratishga ruxsat etiladi;

tarbiyachi va tarbiyachi-yordamchilarga budjetdan ish haqini qoplash uchun subsidiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu xodimlarning plastik kartasiga o‘tkazib beriladi;

Davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan bog‘chalarda, oilaviy bog‘chalarda:

budjetdan to‘lanadigan subsidiya va kompensatsiyalarni hisoblashda 3 yosh va undan katta yoshdagi, lekin 7 yil 8 oydan katta bo‘lmagan yoshdagi tarbiyalanuvchilar hisobga olinadi;

ota-onalar to‘lovi miqdorini mustaqil ravishda belgilab 3 yoshga to‘lmagan bolalarni ham qabul qilishga ruxsat etiladi; Bunda 3 yoshga to‘lmagan bolalarga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratilmaydi (boquvchisini yo‘qotgan ayollarning 2-3 yoshdagi farzandlari bundan mustasno);

Tabiiy gaz uchun kompensatsiya markazlashgan tabiiy gaz ta’minoti bo‘lmagan, lekin isitishning boshqa turlaridan foydalanayotgan DXSh asosidagi va nodavlat bog‘chalarga ham to‘lanadi

Oilaviy MTTga bolalarni qabul qilish tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi

Oilaviy MTTda 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, 9 soatli kunlik ish tartibi joriy qilingan Oilaviy MTT joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib 6 kualik ish etiladi haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Olaviy MTTiga bolalarni qabul qilish va tashkilotdan chiqarish tartibi ushbu MTTng buyrug'i bilan amalga oshiriladi.Oilaviy MTTda o'quv yili yilning sentabridan boshlanadi va keyingi yilning 1- iyuniga qadar davom etadi 1-iyundan 1-sentabrgacha bo'lgan davr sog'lomlashtirish davri hisoblanadi.

Oilaviy MTTda tegishli oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan (tegishli hududlarda oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli talabgorlar mavjud bo'lmagan) holatlarda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tkazilgan shaxslar ham pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq bunday faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.Oilaviy MTTning pedagoglari va boshqa xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Oilaviy MTT rahbari belgilangan tartibda

pedagog kadrlar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mualliflik dasturlari, metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Oilaviy MTT xodimlarining huquq va imtiyozlari qonunchilik hujjatlarida, ushbu tashkilotning ustavida, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Oilaviy MTTning pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega: oilaviy MTTni boshqarishda ushbu tashkilot ustavida belgilangan tartibda qatnashish,o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish, kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish,o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanish;ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari tomonidan pedagog kasbiga hurmat bilan talab qilish.munosabatda bo'lishni Oilaviy MTTning pedagog xodimlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Oilaviy MTTning pedagog xodimlari:

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etishi,ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish bo'yicha o'ziga yuklangan vazifalar doirasida shart-sharoitlar yaratishi; bolalarga yuqori professional darajada ta'lim-tarbiya berish orqali maktabgacha ta'lim sifatini oshirishi;pedagog axloq-odobiga rioya qilishi, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilishi, bolalarni tazyiqdan himoya qilishi, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirishi shart

Olaviy MTT faoliyatini nazorat qilish uni tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkor shuningdek qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi Oilaviy MTT tomonidan maktabgacha ta’limga qo'yiladigan davlat talablarining va ta'lim-tarbiya dasturlarining bajarilishini nazorat qilish Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.Oilaviy MITni attestatityadan o'tkazish, ularning faoliyatini vaqtincha to‘xtatib turish va qonunchilik hujjatlarıda belgilangan tartibda amalga oshirilad

2022-yil 1- sentabrdan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan bog‘chalarda, oilaviy bog‘chalarda:

– budjetdan subsidiyalar xodimlarning ishga kelib-ketishi hamda tarbiyalanuvchilarning davomatidan kelib chiqib nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimida avtomatik hisoblab chiqiladi;

– xodimlarning ishga kelib-ketishini hisobga olish hamda tarbiyalanuvchilarning davomatini yuritish mobil ilova yordamida shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi orqali amalga oshiriladi;
– hisobot oyida tarbiyalanuvchilarning oylik davomati ro‘yxatga olingan tarbiyalanuvchilarga nisbatan 40 foizdan kam bo‘lganda, ushbu oy uchun budjetdan ish haqi to‘lanmaydi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini shakllantirishda oilaviy nodavlat ta'lim tashkilotlarimizning ham o'rni beqiyos. Oilaviy nodavlat tashkiloti tarbiyachisi ham bolalar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'im asosida ularning aqliy, intelektual, emotsional, jismoniy, va ma'naviy aspektlarini inobatga olgan xolda mukkammal bilim bilan qurollantiradilar. Bu esa barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari singari "Ilk qadam" Davlat talablari asosida bolaning beshta indikatorlarni rivojlantirshga doir bilim, ko'nikma va malakalarga va mustahkam aqliy salohiyatga ega bo'lishlariga o'z hissasini qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 30.07.2018-yildagi 595-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 14.07.2022-yildagi PQ-322-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 02.08.2022-yildagi 426-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoev SH.M. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish haqidagi 2020-yil 30-yanvardagi PQ-4581-son qaror
5. Mirziyoev SH.M. 2017. 30 sentyabr. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish haqidagi PQ-3305-sonli farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3305/0038-son).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati,undagi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar haqida bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается деятельность семейных негосударственных дошкольных образовательных организаций, образовательный процесс и возможности, создаваемые государством для педагогов и учащихся.

SUMMARY

This article describes the activities of family non-state preschool educational organizations, the educational process and the opportunities created by the state for teachers and students.